



ADABIY TA'LIMDA NASRIY ASARLARNI O'QITISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti assistenti*

Avezbayeva Jamila Muxtarbayevna

Annotatsiya: maqolada adabiy ta'lim jarayonida nasriy asarlarini o'qib tushunish ko'nikmasini hosil qiluvchi vositalardan bo'lgan lingvistik tahlil malakasini hosil qilish tizimi, o'quv topshiriqlar tizimi, usuli va vositalari, o'quv topshiriqlar turi, tasnifi va tavsifi bayon qilingan. Unda o'quvchilarida nasriy matnni kalit so'zlar, tayanch tushunchalar orqali tahlil qilish, o'qib tushunish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: asosiy tushuncha, leksik tahlil, fonetik tahlil, matn, nasriy matn, so'z ma'nosi, izohli lug'at, o'quv topshiriqlari tasnifi, matn, savol va topshiriqlar

Аннотация: в статье описывается система формирования квалификации лингвистического анализа, система учебных заданий, методы и инструментарий, тип, классификация и описание учебных заданий, которые являются инструментами, формирующими навыки понимания при чтении прозаических произведений в процессе литературного образования. Она была сосредоточена на анализе, чтении и понимании прозаического текста с помощью ключевых слов, основных понятий для своих читателей.

Ключевые слова: базовое понятие, лексический анализ, фонетический анализ, текст, прозаический текст, значение слова, толковый словарь, классификация учебных заданий, текст, вопросы и задания

Abstract: the article describes the system of linguistic analysis qualification formation, the system of educational tasks, methods and tools, type, classification and description of educational tasks, which are tools that form comprehension skills when reading prose works in the process of literary education. She focused on analyzing, reading and understanding prose text using keywords, basic concepts for her readers.

Keywords: basic concept, lexical analysis, phonetic analysis, text, prose text, word meaning, explanatory dictionary, classification of educational tasks, text, questions and tasks

Ta'lim tizimida topshiriqlarning xilma-xil turlaridan foydalanib kelinadi. Jumladan, ona tili ta'limining modernizatsiya qilinishi munosabati bilan juda ko'plab





ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo o‘quv topshiriqlaridan foydalanish masalasiga ko‘p hollarda eskicha yondashilmoqda. Keyingi yillarda ona tili ta‘limi mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishildi, ya‘ni ortiqcha grammatizmdan voz kechib, nutqiy malakalarni rivojlantirishga, matn ustida ishlashga o‘tildi.

Adabiy ta‘lim maqsadlari bilan bog‘liq holda uning aniq vazifalarini tushunamiz. Axborotlashuvning inson hayotidagi o‘rni oshgan hozirgi paytda ijtimoiy va maktab pedagogikasi roli qanchalik paradoks ko‘rinmasin, ta‘limni insonparvarlashtirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Binobarin, adabiyot eng insonparvar fanlardan biridir. Bu borada taniqli adib Nazar Eshonqul o‘rinli yozganidek, “Adabiyotning bosh vazifasi haqidagi bahslar hamma davrlarda ham bo‘lgan. Sho‘ro davri adabiyotning vazifasi o‘rgatish, namuna bo‘lish, “tarbiya vositasi” deb bilgan bo‘lsa, bu sho‘rolar kashf etgan yoki adabiyotga kommunistlar yuklagan vazifa emas. Buni adabiyotning ilk asarini yozganlar kashf etgan, shuning uchun adabiyotni adab o‘rgatish deb hisoblaganlar... Adabiyot baribir bevosita ham, bilvosita ham insonni “tarbiyalaydi”. Uning didini, dunyoqarashini, saviyasini, insonga, millatga, dunyoga, ezgulik va yovuzlikka munosabatini tarbiyalaydi”¹.

Amerikalik pedagog Robert Vaytxed bu haqda shunday degan edi: “Adabiyot o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bolalarda o‘qishga mehr uyg‘otishdir. Buning shartlari – yaxshi kitoblar, yaxshi dasturlar, ilhomlangan o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, albatta, adabiyotshunoslik bilan bog‘liq bilimlar ham”².


Metodist M. To‘ychiyevaning o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqot ishida zamonaviy ta‘lim sharoitida yo‘ldosh darsliklar yaratish masalasi ham tavsiya qilinadiki, ularda asosiy darslikdan o‘rin olgan kichik hajmdagi badiiy asarlar kengaytirilgan tarzda berilishi, dasturda mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlar ham yo‘ldosh darsliklarning materiali bo‘lishi mumkin”ligiga urg‘u qaratiladi.³

Ayni choqda adabiyotning mohiyati nimada, u nima uchun va qanday o‘qitiladi degan savol bir-birini taqozo etadigan birlik sifatida alohida yondashishni talab etadi. Shu kunga qadar mazkur tushunchalar xususida ko‘plab fikrlar ilgari surilgan, sohaga

¹ Эшонқул, Н. “Мен”дан “мен”гача: адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 56–57-б.

² Вайтхед Р. Детская литература: Руководство обучением. – Нью-Джерси, 1968. – С. 3.

³ Туйчиева М.У. 5–7-синфлар адабиёт дарсларида ўзлаштириладиган ўқув материалларини такомиллаштириш тизими. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 148-б.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

tegishli mutaxassis borki, ular tomonidan kuzatishlari doirasida muayyan tavsiyalar berilgan. Adabiyot “San’atning so‘z, til vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi turi”.

Darhaqiqat, nasriy asarlarni o‘qib tushunish uchun o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga pragmatik savol va topshiriqlar berilishi kerak. Savollar shunday tuzilishi kerakki, asar mohiyati osongina ochilsin.

Nasriy matnlar bilan ishlash

O‘tkan kunlar romani (Birinchi bob)

Matn

Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham’ yona-dir, o‘zga hujralarda yengil tabi’atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur ayonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek.

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:


— Tuzukmisiz, ota? — Xudoga shukur, — dedi Hasanali, — boyag‘idan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan. — Ba’zi yumushlar buyursam...

— Buyuringiz, o‘g‘lim. — Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

— Xo‘b, begim. Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashqandan keyin so‘radi: — Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

— Qulimiz.





Bu soʻzdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

— Qulingiz?

— Shundogʻ.

(Otabekning oʻz quliga boʻlgan hurmatini mehmonlar nega ajablanib qabul qilishdi?)

Homid tagʻin soʻradi.

— **Uylanganmisiz?**

— Yoʻq.

Hasanali Otabekning yolgʻiz “yoʻq” bilan toʻxtashiga qanoatlanmadi va bu toʻgʻrida oʻz tomonidan izohlar berishni lozim koʻrdi: — Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalingan boʻlsa ham, — dedi, — avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka boʻlgʻan qarshiliq-laridan bu kungacha toʻy qilolmay kelamiz. Ulugʻ xoʻja-mizning qatʻiy niyatlari bu safardan qaytgʻach bekni uylandirishdir.

— Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yoʻqdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz oʻgirdi. — Uylangach, xotining tabʻingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yoʻqsa, munchalik ogʻir gap dunyoda boʻlmas.


Otabek Rahmatning bu soʻzini samimiyat bilan qarshiladi.

— Soʻzingizning toʻgʻriligʻida shubha yoʻq, — dedi,— ammo shuni ham qoʻshmoq kerakki, oladigʻon xotiningiz sizga muvofiq boʻlishi barobarida er ham xotingʻa muvofiqtabʻ boʻlsin.

— Xotingʻa muvofiq boʻlish va boʻlmasliqni uncha keragi yoʻq, — dedi Homid eʻtirozlanib, — xotirlarga “yer” degan ismning oʻzi kifoya... ammo jiyan aytgandek, xotin degan erga muvofiq boʻlsa bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham isteh-zolik tabassum orasi Homidga koʻz qirini tashladi.

— *Uylanishdagi ixtiyorimiz, — dedi Rahmat, — ota-onalarimizda boʻlgʻanliqdan, oladigʻan kelinlari oʻgʻillarigʻa yoqsa emas, balki uning ota-onalari oʻzlariga yoqsa bas. Bu toʻgʻrida uylanguchi yigit bilan er qilgʻuchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari boʻlmay, bu odatimiz maʻqul va mashruʻ ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinim ota-onamga muvofiq boʻlsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol men ham*





xotining 'a muvofiq emasdirman... So 'zingiz juda to 'g 'ri, bek aka. Otabek Rahmatning so 'zini ixlos bilan eshitdi va "sen nima deysan?" degandek qilib Homidga qaradi.

— Jiyan, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing albatta otanonang uchun bo 'lib ulardan ranjib yurishingni o 'rni yo 'q. Xotining ko 'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotini muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishi-ning ishi emas. Rahmat Otabekka kulimsirab qaradida, tog 'asig 'a javob berdi. — Xotin ko 'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo 'lsin? — dedi. — Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma 'qul ish.

Савол:


(Ajratib ko 'rsatilgan jumlaning izohlab bering, tog 'a-jijan birga kelgan bo 'lsa-da uylanish masalasida ikkisinining fikri nega mos kelmagan deb, o 'ylaysiz. Rahmat ham Homid xotinbozning hamtovog 'i aslida. Lekin qaysi gaplari o 'quvchida unga bo 'lgan munosabatni ijobiy tomonga o 'zgartiradi?)

Matnning tahlil qilishda undagi muhim nuqtalarga e 'tibor berish lozim. Jumladan, "O 'tkan kunlar" romanining mazmun-mohiyati, yozuvchining maqsadini anglash uchun, albatta, boblardagi eng muhim jumla, fikr yoki yondashuvlarni ajratib olish va tahlil qilib ko 'rish lozim.

Bunda matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tizimini puxta ishlab chiqish kerak bo 'ladi. Amaliyotda, asosan, oddiy savollar beriladi. Masalan, Otabek o 'tirgan hujraning jihozlanishi, nimlardan iboratligi, atrofdagi boshqa detallar, umuman, narsa-buyumlarning sifati va xususiyatiga e 'tibor qaratilib, topshiriqlar ularni sanab berish, yoki tavsiflashga yo 'nalgan bo 'ladi.

Aslida mazkur roman orqali muallif o 'quvchiga nima demoqchi, degan katta savolni qo 'yish kerak va barcha vositalarni shunga xizmat qildirishi lozim. Bu borada savol va topshiriqlar quyidagicha bo 'ladi:

1. *Keltirilgan matnning sinchiklab o 'qib chiqing.*
2. *Qaysi fikr sizga ma 'qul bo 'lgan bo 'lsa, o 'zingizga belgilab oling.*
3. *Otabekning shu yoshga qadar uylanmaganiga qanday munosabat bildirasiz va asardagi qahramonning javobiga nima deysiz?*
4. *Hasanali haqida mehmonlarga Otabek nega unga eshittirmasdan ma 'lumot berdi?*





5. *Matnda uylanish va xotin haqida uch xil fikr aytilgan, ularni topib, solishtiring. Siz qaysi fikrga qo'shilasiz, nega?*
6. *Uylanish, ayolga munosabat haqida qaysi manbada ma'lumot o'qigansiz?*
7. *Homidni oqlab bshladimi?*
8. *Matnda ma'no ko'chishining qanday turlari mavjud?*
9. *Metonemiya va metafora hodisasiga misollar keltiring.*
10. *Asardagi kinoyaviy jamlalarni aniqlab, unga fikringizni bildiring.*
11. *Matndan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.*

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, berilgan matn va unga ishlab chiqilgan savol va topshiriqlar, avvalo, so'z, jumla mazmunini, o'zbek tilining keng lisoniy imkoniyatlarini anglashga yordam beradi, eng muhimi, dialog orqali muloqot madaniyatini o'rganib olish mumkin, qolaversa, ikki xotinlilik oqibatlari, yoki ayollarga munosabat qanday bo'lishi lozimligi haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul, N. "Men"dan "men" gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 56–57-b.
2. Vaytxed R. Detskaya literatura: Rukovodstvo obucheniye. – Nyu-Djersi, 1968. – S. 3.
3. Tuychiyeva M.U. 5–7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi. Ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) ... diss. – Samarqand, 2019. – 148-b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 38-b.

